

ODAMLAR ISHONCHI VA ROZILIGIGA ERISHISH ASOSIY MAQSAD

Gulnora MARUFOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Kuni kecha Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi mamlakatimizdagi islohotlar jarayonida yangi bosqichni boshlab beradi. Zero, islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarining borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda muhokama etilgan har bir masala, berilgan har bir topshiriq yagona maqsad — xalqimiz turmushini yaxshilash, davlat boshqaruvida samaradorlikni ta'minlash, odamlar ishonchi va roziligiga erishishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmashimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat. Shuning uchun rahbarlar bugunning talabidan kelib chiqib, "erta"ni kutmay, bir zunda, o'sha joyning o'zida muammoni hal etishga o'tishi zarur.

Yig'ilishda qayd etilgan iqtisodiy natijalar: sanoat o'sishi, eksport, xorijiy investitsiyalar va yangi quvvatlar ishga tushirilishi O'zbekiston iqtisodiyotidagi barqarorlik va ochiqlik siyosati samarasidir. Biroq Prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek, rejalar qog'ozda emas, hayotda bajarilgandagina islohot deyiladi. Buning uchun har bir bo'g'inda javobgarlikni kuchaytirish, hokimlarga zarur vakolatlar berish muhim qadam bo'ldi.

16 ta tuman va shaharda pilot tarzda joriy etiladigan yangi boshqaruv tizimi davlat boshqaruvi amaliy va xalqqa yaqin shaklda olib chiqishga qaratilgan. Hokimlikka 9 ta muhim

lekin amalda yechim topuvchi emas, murojaat taqsimlovchi organ vazifasini bajarib kelganini ochiq tan olishimiz kerak. Yangi tizimga ko'ra, hokimlar har kuni ishini aynan aholi bilan muloqotdan boshlashi, murojaatni o'z joyida hal qilishi bu holatni tubdan o'zgartiradi. Buning uchun Senat va mahalliy kengashlar ham o'z nazoratini kuchaytiradi.

Ijro intizomi uchun Hisob palatasi mas'ul bo'lishi va Prezident Administratsiyasining Nazorat inspeksiyasi tugatilishi — byurokratik ortiqcha bosqichlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Muntazam ravishda xalq vakillari sifatida biz, senatorlar ijro holati yuzasidan joylarda ochiq muhokamarlar o'tkazib, natijalardan xalqni xabardor etib boramiz.

Hokim va o'rinbosarlarini natijaga qarab rag'batlantirish yoki jazolash mexanizmi ishlashi davlat boshqaruvidagi eng adolatli va zarur yondashuvdir. Har bir hududning byudjetidan tortib, boshqaruv modeligacha

Yig'ilishda qayd etilgan iqtisodiy natijalar: sanoat o'sishi, eksport, xorijiy investitsiyalar va yangi quvvatlar ishga tushirilishi O'zbekiston iqtisodiyotidagi barqarorlik va ochiqlik siyosati samarasidir. Biroq Prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek, rejalar qog'ozda emas, hayotda bajarilgandagina islohot deyiladi. Buning uchun har bir bo'g'inda javobgarlikni kuchaytirish, hokimlarga zarur vakolatlar berish muhim qadam bo'ldi.

sohaning bo'limlari o'tishi, shtat va mablag' taqsimoti vakolati to'liq hokim qo'lida bo'lishi samaradorlik, javobgarlik va tashabbuskorlikni oshiradi.

Senator sifatida bu tashabbusni qo'llab-quvvatlayman va u salmoqli amaliy natija berishi uchun joylarda Senat vakillarining nazorat funksiyalari ham kuchaytirilishi kerak deb hisoblayman.

Ko'p yillar davomida Xalq qabulxonalari xalqning dardini eshituvchi organga aylandi,

natijaga bog'lansa, rahbarlarda faqat hisobot uchun emas, xalq roziligi uchun ishlashga rag'bat paydo bo'ldi.

Umuman olganda, ushbu yig'ilish har bir rahbar, har bir senator, har bir idora mas'uli uchun ko'zgu vazifasini bajaradi. Unda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash Oliy Majlis Senati a'zolari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Joylarda nazorat, jamoatchilik bilan hamkorlik va ijtimoiy ta'sirni oshirish uchun vazifalarimizni sidqidildan bajarishimiz kerak.

XIZMAT KO'RSATISH SOHASI BARQAROR O'SYAPTI

Keyingi yillarda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelib, iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lmoqda. Bu barcha soha va tarmoqlar rivoji bilan uzviy bog'liq.

Bozor xizmatlari qiymati so'nggi yetti yilda 22 milliard dollardan 63 milliard dollarga yetdi. Aholi daromadi va to'lov qobiliyati 2 karra, ya'ni 1500 dollardan 3000 dollarga oshgani natijasida odamlarda yangicha xizmat turlariga talab ortib boryapti. Shu bilan birga, yuqori daromadli xizmat turlarida aholi bandligi oshmoqda. Oltinsiz eksportda so'nggi besh yilda ilk bor xizmatlar ulushi 37 foizga yetib, jami eksport 16,5 foiz o'sishi uchun zamin yaratdi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 7-fevral kuni hududlarda xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida axborot texnologiyalari, turizm, aviatsiya, ta'lim, tibbiyot, moliyaviy xizmatlar sohasida so'nggi besh yilda "katta sakrash" bo'lgani ta'kidlandi.

Shakllanib kelayotgan va muhim yo'nalishga aylanayotgan soha bu — xizmatlar eksporti, xususan, turizm, axborot texnologiyalari va moliyaviy texnologiyalar (fintek) asosidagi xizmatlardir. Ushbu yo'nalishlarda bizda hali ishga solinmagan juda ham yuqori salohiyat mavjud.

Bugun ko'rsatilayotgan xizmatlarning 88 foizi moliya, transport, savdo, turizm, ta'lim, tibbiyot va axborot texnologiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Ularning rivojlanishi qolgan sohalarning o'sishiga ham turtki bo'lmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari moliya, ta'lim, elektron tijorat kabi yo'nalishlar, transport sohasi rivoji esa turizm, eksport, logistika va boshqa tarmoqlarning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shmoqda.

2024-yilda xizmat ko'rsatish sohasida hududlarda 58 mingga yangi savdo va servis obyekti ishga tushirildi, sohada 2,6 millionga yaqin kishining bandligi ta'minlandi. Shuningdek, 150 ta ko'chada qiymati 1,3 trillion so'mlik 1,7 mingga xizmat ko'rsatish obyekti foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida 1,6 trillion so'mga teng 1100 dan ortiq xizmat ko'rsatish obyekti tashkil etildi. Barcha dastur doirasida xizmat ko'rsatish sohasiga 61,4 trillion so'mlik kredit ajratildi.

Auktsion orqali 475 gektar yer 7000 ga yaqin tadbirkorga berildi. Yengil turdagi ko'chma savdo obyektlari tashkil etish uchun 5900 ta maydon sotildi.

Xizmatlar va turizm sohasiga ixtisoslashgan hududlarda 650 dan ziyod yangi mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari tashkil etilib, Bo'stonliq va Zomin tumanlarida qator dor yo'llari o'rnatildi. Natijada 2024-yilda xizmat ko'rsatish qiymati 818 trillion so'm bo'lib, 13 foiz o'sish erishildi. Bunda yuqori o'sish sur'ati aloqa va axborot texnologiyalari sohasida 26, moliya xizmatlarida 21, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda 13,3 foiz oshdi.

Joriy yil yanvar-mart oylarida mamlakatda bozor xizmatlari qiymati 210,8 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 foiz ko'paydi.

Sayyohlik sohasida o'tgan davrda 756,8 million dollarlik eksport amalga oshirildi.



Qobil TURSUNOV,
Oliy Majlis Senati qo'mita
raisi o'rinbosari

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,4 foiz ko'paydi va jami xizmatlar eksportidagi ulushi 43,7 foizga yetdi.

Tizimli islohotlar natijasida joriy yil aprelida O'zbekiston sayyohlik sohasida mutlaqo yangi va misli ko'rimagan natijaga erishdi — mamlakatimizga birinchi marta bir oyda 1 milliondan ziyod xorijlik sayyoh keldi. Ular soni o'tgan 4 oyda 3 milliondan ortdi.

Mahalliy va xorijiy turistlarning yangi ochilgan yirik sayyohlik obyektlariga kelishi soha rivojiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Turoperator va turagentlarning soni 194 taga, xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalari soni 18 taga va ulardagi o'rinlar soni 1100 taga ortdi.

Bundan tashqari, o'tgan yili hududlarning sayyohlik salohiyatini master-reja asosida ro'yobga chiqarish bo'yicha Shahrisabz tumanida "Miraki tajribasi" yo'lga qo'yildi. Ushbu tajriba asosida Surxondaryo viloyatining Boysun (Omonxona), Sariosiyo (Sangardak) va Jarqo'rg'on (Oqtepa suv ombori) tumanlarida qiymati 2 trillion so'mlik, yiliga qo'shimcha 800 milliard so'mlik xizmat ko'rsatiladigan loyihalarni amalga oshirish boshlandi.

Chekka hududlarda ham axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish maqsadida 15 ta hududda IT shaharchasi tashkil etilib, ularda yoshlarni axborot texnologiyalari, chet tili va boshqa zamonaviy kasblar bo'yicha bepul o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Transport sohasida 7 ta yangi samolyot sotib olinib, milliy aviatsiya parkidagi havo kemalari soni 93 taga yetkazildi.

Hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, aholi va sayyohlarga qulay xizmat ko'rsatish infratuzilmasi yaratish borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, hududlar iqtisodiy o'sishiga turtki beruvchi drayver loyihalarni amalga oshirish tizimli yo'lga qo'yildi. Birinchi bosqichda 330 ta loyiha tanlab olinib, ularni amalga oshirish uchun byudjetdan 268 milliard so'm bo'nak mablag' ajratildi.

Birgina Qo'shko'pining Shixmashhad mahallasida 5 milliard so'mlik mablag' hisobiga qulay infratuzilmani ta'minlash orqali mikrosanoat shaklida hunarmandlar



markazi barpo etilmoqda. Ushbu markaz Shixmashhad va O'zbekiston mahallalaridagi uy sharoitida yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanuvchi 60 ga yaqin hunarmandni bir joyda jamlaydi. Natijada 200 ta yangi ish o'rni ochiladi hamda 60 ga yaqin shogird

tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Umuman olganda, bu loyihalarni amalga oshirish natijasida joriy yilda 26 mingga yaqin ish o'rni ochiladi.

Hududlarda davlat-xususiy sheriklik asosida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Urganch xalqaro aeroporti 19 yillik konsessiyaga Janubiy Koreyaning "Incheon International Airport Corporation" kompaniyasiga berildi. Bu davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshiriladi. Aeroport hozir soatiga bitta havo kemasi va yiliga 1,5 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatish salohiyatiga ega. Zamonaviy va qulay aeroportga aylantirilishi hisobiga soatiga 6 ta havo kemasi va yiliga 10 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi yana bir muhim yo'nalish bu — axborot texnologiyalari. Yuqori bilim va ko'nikmaga asoslangan xizmatlarni rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, yoshlarimizni yuqori daromadli xizmat turlari bo'yicha o'qitishimiz zarur. So'nggi 3 yilda yoshlarni birgina axborot texnologiyalari sohasiga o'qitish uchun mamlakat byudjetidan 5,8 milliard so'm ajratildi. Natijada xalqaro IT sertifikatiga ega yoshlar soni 2 barobar oshib, 2400 ga yetdi. Bu esa bilimga asoslangan xizmatlar, jumladan, yuqori qiymat beradigan axborot texnologiyalari va fintex sohasini jadal rivojlantirishga barcha imkoniyat yetarli ekanini ko'rsatadi.

"MARKAZIY OSIYO – XITOIY": MINTAQAVIY HAMKORLIKNING MUHIM BOSQICHI

Boshlanishi 1-betda

Tizimli tus olayotgan "Markaziy Osiyo — Xitoy" muloqoti, birinchi navbatda, o'zaro iqtisodiy manfaatlariga qaratilgan. Xitoy so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining savdo hamkorlari orasida doimiy ravishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Xitoy kapitali ishtirokida mintaqaning barcha mamlakatlarida sanoat, energetika, transport, logistika va savdo sohalarida o'nlab loyihalar amalga oshirilyapti.

Markaziy Osiyo va Xitoy ishbilarmon doiralari vakillari tomonidan tashkil etilgan qo'shma korxonalar soni bugungi kunda 6 mingga yaqin. Mintaqaning Xitoy bilan umumiy savdo aylanmasi 2024-yilda 94,8 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda hisob-kitoblarga ko'ra, bu ko'rsatkich 100 milliard dollarga yetadi.

Markaziy Osiyo "Bir makon, bir yo'l" strategiyasining asosiy elementi bo'lib, uning doirasida Yevropaga yangi transport yo'laklarini yaratish uchun yo'llar, savdo markazlari va logistika infratuzilmasini qurish ishlari jadal olib borilmoqda.

Birinchi "Markaziy Osiyo — Xitoy" sammiti 2023-yil 18-19-may kunlari Sian shahrida bo'lib o'tgan edi. Mazkur sammit

Sian deklaratsiyasining imzolaniishi, davlat rahbarlarining har ikki yilda bir marta navbatma-navbat Xitoy va mintaq davlatlaridan birida uchrashuvlar o'tkazish mexanizmini yo'lga qo'yish, shuningdek, idoralararo darajada o'zaro hamkorlikni faollashtirish bilan yakunlandi. Natijada 9 ta ko'p tomonlama hujjat imzolandi va 19 ta hamkorlik platformasi yaratildi.

Xususan, format doirasida qishloq xo'jaligi, ichki ishlar, tashqi ishlar, ta'lim, transport, iqtisodiyot va savdo vazirlarining, bojxona xizmatlari rahbarlarining uchrashuvlari, tahliiliy markazlar, axborot agentliklari forumlari va boshqa ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlari ishga tushirildi.

"Markaziy Osiyo — Xitoy" ikkinchi sammitiga tayyorgarlik 2025-yil aprel oyida Olmaotada bo'lib o'tgan tashqi ishlar vazirlarining VI uchrashuvidan boshlandi. Unda Ostona shahrida bo'lib o'tadigan oliy darajadagi sammit kun tartibi muhokama qilindi va imzolaniishi rejalashtirilgan hujjatlar kelishib olindi.

Tahsilchilarning aytishicha, bu format mintaqaviy hamkorlikning uzoq muddatli tizimiga aylanishini va'da qilmoqda.

"Markaziy Osiyo — Xitoy" formatining



faol ishtirokchisi sifatida O'zbekiston Xitoy bilan ikki tomonlama asosda sheriklikni muvaffaqiyatli davom ettirmoqda. Ikki davlat rahbarlari o'rtasida yaqin, ishonchli siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ikki tomonlama hamkorlikka barqarorlik va dinamik xususiyat taqdim etmoqda.

2022-yilda O'zbekiston va Xitoy ikki tomonlama munosabatlarni mavsumiy strategik sheriklik darajasiga ko'tardi. Bu maqom yuqori darajadagi o'zaro ishonch, barqarorlik va xalqaro vaziyatdan qat'i nazar, har ikki tomonning yaqindan hamkorlik qilishga tayyorligini aks ettiradi. Mazkur

jihati, shuningdek, O'zbekiston va Xitoyning ko'p qirrali munosabatlarini uzoq muddatli asosda mustahkamlash niyatini tasdiqlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligidagi amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar bunday taraqqiyotning muhim omillaridandir. Ular mamlakatga yirik xorijiy investorlarni, jumladan, Xitoy korporatsiyalarini jalb qilish uchun sharoit yaratdi. Xususan, Xitoy kompaniyalari yurtimizda energetika, qurilish, mashinasozlik, kimyo, to'qimachilik sanoati va boshqa sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

Bugungi kunda Xitoy O'zbekistonning yetakchi savdo-iqtisodiy hamkoriga aylangan. 2024-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 13 milliard dollardan oshdi. 2011-yildan buyon hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Xitoy hukumatlararo qo'mitasi faoliyat yuritib kelyapti. Uning 7-majlisi 2024-yil 13-may kuni Toshkentda bo'lib o'tdi. Xitoy O'zbekistonning investitsiyaviy sheriklari orasida ham yetakchi bo'lib qolmoqda. 2024-yilda umumiy qiymati 1,9 milliard dollarlik 64 ta loyiha ishga tushirildi, 2017-2024-yillarda Xitoy investitsiyalarining umumiy hajmi 23,1 milliard dollarni tashkil etdi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda Xitoy investitsiyasi ishtirokidagi 3,5 mingdan ortiq korxona bor. Ulardan 220 tasi 2025-yilda tashkil etilgan. Parlamentlararo va hududlararo hamkorlik ham faol rivojlanib, madaniy-gumanitar almashinuvar kengaymoqda. Bu o'zaro ishonch va har tomonlama aloqalarni chuqurlashtirishga intilishning yuksak darajasini ifodalaydi.

Buning uchun ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi tarixiy rishtalar mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilyapti.

O'zbekiston — Xitoy munosabatlarining konstruktiv xususiyati butun mintaqaviy kun tartibi uchun ijobiy tendensiyani belgilab beradi, sheriklik munosabatlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi, shuningdek, "Markaziy Osiyo – Xitoy" formatidagi hamkorlik samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ostona shahrida bo'lib o'tadigan "Markaziy Osiyo — Xitoy" sammiti mintaqaning eng dolzarb va muhim masalalar bo'yicha konsolidatsiyasiga yangi turtki berishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbarining mazkur sammitda ishtirok etishi esa O'zbekiston ishonch, yaxshi qo'shniçilik muhitini mustahkamlash va dolzarb mintaqaviy hamda xalqaro muammolarni hal etishda o'zaro maqbul yondashuvlarni konstruktiv izlashga soddiligini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Dunyo" AA



ISLOHOTLAR MEVASI: URGUTDA ILDIZ OTGAN ORZULAR VA MEHNAT SAMARASI

Yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanish insonning yondashuvi, mehnati va mas’uliyatiga bog’liq. Bayon etilgan fikrlar ana shunday sharoitda yuzaga kelgan amaliy tajriba ifodasidir. Shu sababli yoshlarning qo’lidan ushlab, oyoqqa turg’izayotgan xalqparvar siyosatga natija bilan javob qaytarish har bir faol fuqaroning tabiiy burchiga aylanmog’i kerak.

ishonchini shakllantiradigan maskanga aylanib ulgirdi. Shu sababli biz uchun “Fabrika bu — ish joyi emas, dunyoqarashni o’zgartirish makoni”dir.

Birgina misol: korxonamizda ishlayotgan yoshlarning 70 foizi avval “Yoshlar daftari”da ro’yxatda turgan ishsizlar qatorida edi. Bugun ulardan, yuqorida aytganimizdek, 20 nafari o’zining shaxsiy ustaxonasini ochgan bo’lsa, 30 nafari muhandislik, texnologik nazorat yoki logistika sohasida tajriba to’plab, mustaqil faoliyatini boshlab yubordi.

Biz yangi ish o’rinlarini tashkil qilish barobarida dual ta’lim asosida kadrlar tayyorlash yo’nalishida ham faol ishladik. Jumladan, to’qimachilik sanoati yo’nalishidagi qator oliy va o’rta-maxsus ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda maxsus dastur ishlab chiqildi. Shu asosda 50 dan ziyod yosh 3 oylik amaliy mashg’ulotlarni to’g’ridan to’g’ri ishlab chiqarish davrida o’tab, ish tajribasini boyitdi.

Bu jarayonda ular faqat texnika yoki mashinalarni boshqarishni o’rganmadi, ular ishlab chiqarish madaniyatini, korxona ichki intizomi va mehnat munosabatlari, eng muhimi, tadbirkorlik ruhini singdirib oldi. Hozir 10 nafari shu korxonada ishga joylashgan bo’lsa, yana 15 nafari tahsilni davom ettirish bilan birga biznes loyihasini ishlab chiqmoqda.

Korxonamizdagi 30 nafar xotin-qiz uchun alohida sharoit yaratilgan: ish vaqti qulaylashtirilgan, bola parvarishi uchun maxsus vaqt ajratilgan, atrof-muhit gigiyenasi va ishbilarmonlik muhiti inobatga olingan. Albatta, bundan haqli ravishda faxrlanaman: chunki yangi ish o’rni yaratish, ishonch uyg’otish, hayotiga turki berish va bir inson taqdiriga hissa qo’shish quvonchli jarayondir.

Har bir inson hayotida unutilmas, yuragida iz qoldiradigan voqealar bo’ladi. Men uchun bunday buriilish nuqtasi 2021-yil Urgut shahriga Prezidentimiz tashrif buyurgan kunga to’g’ri keladi.

O’sha kuni davlatimiz rahbariga “Urgutini” brendi ostidagi mahsulotlarimizni taqdim etish imkoniyati nasib etdi. Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlikka yaratilayotgan sharoitlar, mahalliy brendlarni qo’llab-quvvatlash siyosati haqida aytilgan so’zlar biz, ishbilarmonlar uchun katta ilhom bo’ldi.

“Milliy mahsulotlarimiz o’z brendi ostida jahon bozorlariga chiqishi kerak” degan g’oyalarni so’nggi yillardagi amaliy islohotlar bilan uyg’un holda menga yangi maqsadlar qo’yishga turki bo’ldi. Shu ilhom bilan biz eksportga yo’naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishni



Biz tanlagan yo’l



Bu tashabbusning asosiy maqsadi shunchaki ish o’rni yaratish emas, balki mahalliy aholining hayotida turmush sifatiga ta’sir qiluvchi tub o’zgarishlar kiritish edi. Filialda dastlabki 3-4 oy mobaynida ish o’rgatish jarayoni ishlab chiqarish bilan uyg’unlashtirildi. Hozirgi kunga kelib, bu yerda 30 dan ortiq xodim doimiy ish bilan ta’minlangan.

Oqdayodagi bu tajribaning samarasi o’zini tezda ko’rsatdi. Shu asosda 2023-yilda Qoraqalpog’istonning Nukus tumanida, 2024-yilda esa Samarqand viloyatining Bulung’ur tumanida xuddi shu model asosida yangi filiallar tashkil etildi. Ayni paytda barcha filiallarda 100 ga yaqin xodim doimiy ish bilan band, ularning oylik ish haqi 3 million so’m dan 5 million so’mgacha yetadi.

Faoliyatimiz natijasida ishlab chiqarish hajmi oshdi, aholini kasbga qo’qitish orqali mahalliy mutaxassislar bazasi kengayga boshladi. Bu tajriba ko’rsatdiki, mahallada boshlangan kichik tashabbuslar ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy faollik va ruhiy ko’tarinkilikka xizmat qilishni omilga aylanishi mumkin.

Tadbirkorlik borasidagi tajribamdan angladimki, bu faqat daromad manbai hisoblanmay, balki inson hayoti, turmush tarzi, fikrlash usuli, hayotga munosabatini o’zgartiruvchi kuch ham ekan. Korxonamda ish boshlagan har bir yosh nafaqat maosh, balki hayotdagi maqsad va qadriyatlarini his qila boshlaydi. U ishli bo’lsa, oilasida farovonlik bo’ladi, farzandlari yaxshi yeb-ichadi, yaxshi kiyinib maktabga boradi, ta’limdan boshqa tashvishi qolmaydi.

Albatta, inson turmushidagi farovonlik oylaning hayotga munosabatini o’zgartirmay qolmaydi. Chunki ota-onaning ko’ngli to’q bo’lsa, farzand tabiiyati ham, ta’limga munosabatda ham ijobiy o’zgarishlar bo’ladi. Bunday oilalarda kitob o’qish, konsert va teatrlarga borish odat tusiga kiradi. Mahallada hurmatni his etadi, ijtimoiy faollikka intiladi, hayotdan rozi bo’ladi. Eng muhimi, mahalla, jamiyat va vatan uchun javobgarlik hissi kuchayadi.

Shu boisi, ishonch bilan ayta olaman: “Tadbirkori ko’p yurt madaniyatli bo’lur!”. Bu ibora hayot haqiqati. Chunki madaniyat faqat kitob yoki san’atdan iborat emas, balki mehnatga munosabat, hayotga mas’uliyat va ruhiy kamollik ham uning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Dunyo tajribasiga nazar tashlasak, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda ham kichik biznes va o’rta tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy drayver, balki madaniyatni shakllantiruvchi omil sifatida ko’riladi. Bu davlatlar aholisining madaniyatli, tartibli va mas’uliyatli bo’lishida tadbirkorlikning rolini inkor etib bo’lmaydi.

Ayni paytda tarixga nazar tashlasak, Amir Temur kasb egalari, xususan, hunarmand va tadbirkorlarni qo’llab-quvvatlash orqali davlatni mustahkamlagan. Buyuk sarkarda bobomiz: “Azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”, degan edi. Bu fikr, aslida, tadbirkorlikka yuksak ishonch, jamiyat taraqqiyotida uning hal qiluvchi o’rnini ko’rsatishini anglash lozim.

Jadidlar davrida esa tadbirkorlik faoliyati orqali jamiyatda ma’rifat taraqqiyotiga keng yo’l ochilgan. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ma’naviy kamolot va moddiy farovonlik o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni ta’kidlagan holda har bir shaxs o’z mehnati orqali jamiyatda madaniyatli muhit yaratishga xizmat qilishi zarurligini aytadi.

Mamlakatimizda tadbirkorlar qatlamini kengaytirish borasidagi islohotlar ham aynan madaniyatli, ma’naviyatli va ma’rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilganiga aminman. Chunki madaniyatli jamiyat har bir fuqaroning hayotidan rozi bo’lgan, farzandining kelajagiga ishongan, shaxsiy taraqqiyot va umumiy yuksalishga intilgan muhitdir. Shuning uchun har bir yaratilgan ish o’rni jamiyatning madaniyatni yuksaltirish sari tashlangan qadamdir.

Bugun O’zbekistonda milliy brendlarni ostida mahsulot ishlab chiqarayotgan yuzlab tadbirkorlar faoliyat yuritmoqda va bu juda muhim ko’rsatkich. Shu qatorda “Urgutini” brendi ham Urgutdan boshlanib, yurtimizning brend salohiyatini xalqaro maydonda namoyon etayotgan mahalliy tashabbuslardan biriga aylanmoqda.

2024-yilda korxonamizda tayyorlangan 5000 dona erkaklar ko’ylagi Litva va Germaniya bozorlariga yetkazildi. Bu eksport natijasida “Urgutini” xalqaro miqyosda o’z o’rnini topa

shakllantirish — dunyo amaliyotida keng qo’llaniladigan tajriba. Italiyaning “Armani”, Fransiyaning “Lacoste” va AQSHning “Ralph Lauren” brendlari bilan bu davlatlar o’z ishlab chiqarish salohiyatini, madaniy qadriyatlarini namoyon etishga erishgan. Shu nuqtayi nazardan, “Urgutini” ham mahalliy tashabbus sifatida ana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanishga intilmoqda.

Kelgusida esa ushbu tashabbusni xalqaro bozorda yanada mustahkamlash, Yevropa mamlakatlarda savdo infratuzilmasini kengaytirish va mahalliy mahsulotlar salohiyatini taniqli qilishga qaratilgan harakatlar izchil davom etiriladi. Bu yo’nalishda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish va samarali hamkorlikni yo’lga qo’yish ustuvor vazifalardan sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanish insonning yondashuvi, mehnati va mas’uliyatiga bog’liq. Bayon etilgan fikrlar ana shunday sharoitda yuzaga kelgan amaliy tajriba ifodasidir. Shu sababli yoshlarning qo’lidan ushlab, oyoqqa turg’izayotgan xalqparvar siyosatga natija bilan javob qaytarish har bir faol fuqaroning tabiiy burchiga aylanmog’i kerak.

Yoshlik ilhom emas — harakat, imkoniyat sovg’a emas — mas’uliyat. Bugun yuritilayotgan siyosat yoshlar salohiyatini to’ryobga chiqarish,



Majidxon ISLOMOV,
“Urgut Sanoat Servis”
korxonasi rahbari,
“Urgutini” brendi asoschisi

Boshlanishi 1-betda

Aynan shu muhitda ishonch va qo’llab-quvvatlov bilan shakllangan imkoniyat tufayli tadbirkorlik faoliyatiga dastlabki qadamlar ko’yildi. Ilk bosqichda katta samoyga bo’lmagan. Biroq davlatning “Sen qila olasan” degan ishonchi tashabbusni qanotlantirdi. Ushbu ishonchni oqlash, berilgan imkoniyatdan unumli foydalanish, har bir resursni oqilona boshqarish orqali natijaga erishish asosiy maqsadga aylandi. Urgut erkin iqtisodiy zonasida taqdim etilgan soliq va kredit imtiyozlari, infratuzilma bilan ta’minlash bo’yicha yaratilgan sharoitlar orqali g’oya amaliy biznes loyihasiga aylandi.

Natijada tashkil etilgan “BRED” to’qimachilik korxonasi shunchaki ishlab chiqarish manzili bo’lmay, balki ishonchga berilgan amaliy javob, mehnat maskani sifatida shakllandi. Bugungi kunda 100 dan ortiq inson doimiy ish o’rniga ega. Ularga yaratilgan sharoit, farzandlari hayotidagi ijobiy o’zgarishlar mamlakatdagi xalqchil siyosatning amaliy samarasidir.

Har bir ish kuni kimgadir foyda, boshqasiga imkoniyat, yana birov uchun ish joyi degani. Tadbirkorlik iqtisodiy natijalar bilan bir qatorda jamiyat ehtiyojlariga yechim taklif qilish yo’li hamdir.

Ochig’ini aytaman, qilingan ishlar faqat bitta maqsadga yo’naltirilgan: o’zimdek yoshlarni qo’lidan ushlab oyoqqa turg’izayotgan davlatimiz siyosatiga amaliy harakat va natija bilan javob qaytarish. Bu yozilayotgan fikrlar esa shaxsiy faoliyat tarixi hisoblanmaydi, balki imkoniyat eshigi ochilganda undan qanday yuz, qanday maqsad va qanday ta’sir bilan foydalanish mumkinligining hayotiy isboti sifatida qabul qilinishini anglatadi. Chunki taqdim etilgan imkoniyatni nafaqat sovg’a, ayni paytda ulkan mas’uliyat deb qabul qilganman. Ana shu tuyg’u qalbimda yashay boshlagan kundan nafaqat men, balki biz bilan birga bo’lgan yuzlab insonlar hayotida ham katta o’zgarishlar boshlab berganini va buning ortidagi inson qadri bilan bog’liq o’ziga xos burch turganini aslo unutmayman.

Urgutdagi ta’minalab bir bino, 30 kvadrat metrli ijara sexi va 5 nafar yosh bilan birga ish boshlangan ilk kunlarimizda hech kim bu ishga katta kelajak bog’laydi deb o’ylamagan. Hatto o’sha paytda o’zimda ham ishonch va ko’rqun o’rtasida ikkilanish bor edi: bir tomondan mas’uliyat va javobgarlik, ikkinchi tomonda esa orzu va umid. Ammo aynan o’sha paytda boshlangan safarimizning har bir kuni ishonchni mustahkamlash, tajriba to’plash va jamiyat hayotida amaliy hissa qo’shishga qaratildi.

Ilk buyurtmamiz erkaklar uchun 50 dona klassik ko’ylak edi. Bir qarashda oddiy tuyulgan bu ish biz uchun katta mas’uliyat bilan boshlangan sinov bo’ldi. Har bir mahsulotga mehnat va e’tiborni ayamadik. Mijozimizning chin dildan qilgan duosi esa bizga katta ruhiy quvvat bag’ishladi. Shu kundan ishimizga ishonch orta boshladi. Buyurtmalar soni ko’paydi, biz uchun esa sifat va mas’uliyat kundalik ish usuliga aylandi.

Bugun korxonamizda 18-30 yoshli 40 ga yaqin yurtdoshimiz bor. Ularning aksariyati tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki ustaxonalarni ochishga bel bog’lagan. Biz ularni faqat ishga jalb etibgina qolmadik, balki har biriga mahorat darslari o’tdik, korxona ichida ustoz-yogird tizimini joriy qildik. Hozir 20 nafar yosh o’zining kichik ustaxonasini ochishga erishdi. Ularning har biri 7 va undan ko’p yoshni ish bilan ta’minlayapti. Bu yoshlar, o’z navbatida, yana o’nlab odamlarga ish o’rni yaratib bermoqda.

E’tirof etmasdan ilojimiz yo’q, shu ishlarmiz tufayli mahallamizdagi ayrim oilalarda iqtisodiy ahvold ancha yaxshi tomonga o’zgardi. Ilgari

davlatdan nafaqa olib kun ko’rayotganlar orasida hozir o’z farzandi korxonamizda ishlab, oilaviy daromad keltirayotganlari bor. Ayrim yoshlar ilk ish haqini olgan kuni ota-onasiga sovg’a olib kelganini ko’rib, yuragim zavqga to’lib, to’lqinlanganman. Bu nafaqat iqtisodiy o’sish, balki jamiyatda ishonch muhiti qayta tiklanayotganidan darak edi.

Ishdagi shioremiz bunday: har bir buyurtma ortida inson taqdiri borligini unutmasslik. Mahsulotlarimiz nafaqat sifati bo’lishi, balki insonlarga qo’l kelishi, ularga xursandchilik bag’ishlashi kerakligini yaxshi anglaganmiz. Shu bois, har bir mato tanlovidan tortib, dizayn va qo’llash mumkin bo’lgan texnologiyalargacha zamonaviy yondashuvni joriy etdik. Bugun korxonamizda moda va funksiya birlashgan ko’ylaklar, maxsus ish kiyimlari, bolalar uchun maktab formallari, hattoki qo’shni yurtlardan ham davlat xizmatchilari uchun maxsus kiyimlar tikib beryapmiz. Matolar Turkiya, Bangladesh va Xitoydan olib kelinadi. Barcha mahsulotlar gilamdek tikiladi, har bir tugma mas’uliyat ramziga aylangan.

2019-yil hayotimdagi yangi bosqich, yangi marallarning boshlanishi bo’ldi. O’sha yili Urgut erkin iqtisodiy zonasining Mergancha massividan 50 sotix yer ajratilib, zamonaviy talablarga javob beradigan ishlab chiqarish va ma’muriy binolar qurishga bel bog’ladik. Ushbu loyiha doirasida Yaponiya, Turkiya va Germaniyadan keltirilgan yuqori texnologiyali uskunalar asosida ishlab chiqarish jarayonlari yo’lga qo’yildi. Yangi inshootlar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki yuzlab insonlar uchun munosib mehnat sharoiti yaratishga xizmat qildi.

2024-yilda korxonaning aylanma mablag’i 6,5 milliard so’mni tashkil etdi, sof daromad 1,5 milliard so’m bo’ldi. 2025-yilda esa bu ko’rsatkich 8 milliard so’m dan va sof daromad 2 milliard so’m dan ortishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar



zamidra, avvalo, davlatimizning huquqiy kafolatlari, Prezidentimizning qat’iy siyosiy irodasi va yosh tadbirkorlarga ishonchi mujassam. Va ishonch hozirgi tadbirkorlik muhitining asosiy tayanchiga aylangan.

Aynigsa, Prezidentimiz qabul qilgan qator muhim qarorlar tadbirkorlar uchun mustahkam huquqiy asos, iqtisodiy himoya va aniq yo’nalishlar berdi. Ular qatorida 2021-yil 4-noyabrdaqi “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmon, shuningdek, “Yoshlar daftari”, “Ayyollar daftari” orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy va moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etdi.

Unda ko’zda tutilgan soliq imtiyozlari, yengillashtirilgan kreditlar, infratuzilma bilan ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar orqali tadbirkorlik rejalarini amalga oshirish imkoniyati vujudga keldi. Har bir chora-tadbirda ishbilarmonlikni qo’llab-quvvatlash, harakatdagi yoshlarga ishonch bilan qarash ruhi seziladi.

Bugun biz faoliyat yuritayotgan Urgut erkin iqtisodiy zonasi yangi bosqich, yangi marallar, yangi intilishlar maskaniga aylangan. Biznesni islohotlar va qulay muhitisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ammo bu muhit shunchaki yaratilgani yo’q, bu yoshlarga doimiy e’tibor va qo’llab-quvvatlov samarasi deb hisoblayman.

Umuman olganda, har qanday fabrikaga shunchaki ish joyi sifatida yondashish yetarli emas, ular insonning dunyoqarashi, kelajakka

boshladik.

2024-yilda korxonamizda ishlab chiqarilgan erkaklar ko’ylagi “Urgutini” brendi ostida Yevropa Itifoqi bozorlariga chiqdi. Bu natija shunchaki eksport amaliyoti emas, balki keyingi yillarda mamlakatimizda milliy ishlab chiqaruvchilarni qo’llab-quvvatlash, mahsulotlarimizni xalqaro bozorlarga olib chiqishga qaratilgan oqilona siyosat samarasidir.

Hozir Latviyada O’zbek savdo uyini ochish yo’lida aniq amaliy qadamlar qo’yilmoqda. Bu loyiha ham Prezidentimizning “O’zbek brendi”ni jahon miqyosida mustahkamlashga qaratilgan g’oyasiga uyg’un holda amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz bilan uchrashuv men uchun mukofot emas, balki yuksak mas’uliyat ramzi bo’ldi. Davlatimiz rahbarining “Men sizlarga ishonaman!” degan so’zlari butun faoliyatimda ilhom va mehnat shioriga aylandi. Bu ishonchni amalga oqlash burchim, avvalo, fuqarolik mas’uliyatimga aylandi.

Yoshlar sifatida biz bu e’tiborni his qilar ekanmiz, o’z hayotimizdan tashqari vatan taqdiri uchun ham yashash va ishlash kerakligini to’g’ri anglaymiz. Shu bois, yangi avlod vakili sifatida aytishim joizki, islohotlar yo’lida faol va xalqaro maydonlarda yurtimiz nomini munosib himoya qilish muqaddas vazifamizdir.

Faoliyatimiz faqat Urgut tumani doirasida qolmadi. 2022-yilda sinov tariqasida Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida, aholi zich yashaydigan va hishsizlik yuqori mahallalardan birida bo’sh turgan binodan foydalanib, yangi ishlab chiqarish nuqtasi tashkil etildi. Bino ijaraga olindi, uskunalar o’rnatildi va 10-15 xotin-qizga tikish kasbi o’rgatilib, shu yerda birinchi filialimiz faoliyatini boshladi.

boshladi. Turkiya orqali yo’lga qo’yilgan shartnomalar va rejallashtirilgan savdo aloqalari esa mahalliy mahsulotlarning dunyo bozorida o’z o’rniga ega bo’lish sari tashlanayotgan muhim qadamlardan biridir.

“Urgutini” brendi dastlab shaxsiy tashabbus sifatida yaratilgan bo’lsa-da, vaqt o’tishi bilan u mahalliy mahsulot sifatida tashqi bozorda ham tanila boshladi. Jahonning turli mamlakatlarida shu brend nomi bilan atalgan ko’ylaklar xarid qilinaotganini eshitish, mahsulotimizning xalqaro miqyosda o’z o’rniga ega bo’lib borayotganini his etish imkonini beradi.

Mahalliy brend orqali mamlakat imijini

tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashga yo’naltirilgan. Bunday ishonchga munosib bo’lish uchun esa tinimsiz mehnat, haqqoniy natija va yuksak mas’uliyat talab etiladi.

Imkoniyat eshiklarini ochish va undan oqilona foydalanish har bir yoshning shaxsiy tanlovi bilan bog’liq. Eng muhimi, ana shu yo’ldan o’tar ekanmiz, ortimizdan boshqalar uchun ham yo’l ochish, o’z hissamizni nafaqat foyda, balki ijtimoiy mas’uliyat tuyg’usi bilan ado etishni unutmasligimiz kerak.

Chunki yangi O’zbekiston har bir yurtidoshimizning samimiy hissi bilan barpo etilayotgan umumiy harakat, umumiy maqsaddir.



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Boz ustiga, 2017-yilda valyuta bozori liberalizatsiya qilingani investorlarga o'z foydasini erkin konvertatsiya va repatriatsiya qilish imkonini bergani, soliq yukini kamaytirish va soliq ma'murchiligini soddalashtirish maqsadida soliq islohoti o'tkazilgani, biznesni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziya olish tartiblari soddalashtirilgani, investorlarning huquqlarini himoya qilish va investitsiyaviy nizolarni hal qilish mexanizmlari takomillashtirilgani samara bera boshladi. Natijada O'zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan va investitsiyalar uchun ochiq mamlakat sifatida xalqaro hamjamiyat e'tiborini tobora ko'p jalb etmoqda. Bu jarayonda muhim ahamiyatga ega asosiy platformalardan biri Toshkent xalqaro investitsiya forumidir.

Poytaxtimizda bo'lib o'tgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Ochiq'ini aytganda, global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar tobora kuchayib, geosiyosiy jarayonlar ko'z o'ngimizda shiddat bilan o'zgarayotgan, jahonda qurollanish pogyasi yana avj olgan bir pallada investitsiyalarni jalb etish oson ish emas. Vaholanki, iqtisodiy inqiroz asoratlari, moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli jahon yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati ketma- ket uch yildirki pasaymoqda. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, xalqaro huquq normalari va diplomatiya kuchi zaiflashmoqda. Eng achinarlisi, insoniyat uchun dolzarb muammolar — oziq-ovqat xavfsizligi, kambag'allik, iqlim o'zgarishlari kabi masalalarga e'tibor kamaymoqda.

Shu bois, davlatimiz rahbari xalqaro investitsiya forumida dunyoda tinchlik, adolat va inson qadriga umumiy ishonchini tiklash, mojarolarni faqat diplomatiya yo'li bilan yechishga chaqirdi. Xususan, ishtirokchilar e'tiborini dunyoning eng o'tkir muammolariga qaratdi. Global kun tartibidagi ana shunday muhim masalalardan biri bu — qo'shni Afg'onistonning tinch va barqaror rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat. Bu davlatning amaldagi hukumati bilan xalqaro maydonda konstruktiv muloqot olib borish, uning yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik har qachongidan ham muhim. Zero, mazkur mamlakatdagi o'soyishtalik va iqtisodiy rivojlanish yon-atrofdagi barcha mintaqaning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun zarur omildir. Chunki faqat xavfsizlik ta'minlansagina, taraqqiyot va hamkorlik haqida gapirish mumkin. Afg'oniston tinch bo'lmas ekan, zanjir reaksiyasini keltirib chiqaradi, atrofqa beqarorlik urug'ini sepad.

Nufuzli anjuman doirasida Prezidentimiz investitsiyalar uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan turli sohalarni taklif etdi. Birinchisi, "yashil" iqtisodiyot sohasi.

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror, toza, ekologik bezarar energiya resurslari bilan ta'minlash uchun aynan "yashil" energetikani rivojlantirishga astoydil kirishgan. O'tgan qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 milliarddan 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Keyingi besh yilda bu ko'rsatkich 120 milliard kilovatt-soatdan oshib, "yashil" energiya ulushi 54 foizga yetkaziladi.

Elektr tarmoqlarini yangilashga ham 4 milliard dollar jalb qilish, joriy yilda Samarqandda, kelgusi yildan yana 8 ta hududda elektr tarmoqlarini xususiy sheriklikka berish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, ilk bor "yashil" sertifikat va uglerod birliklari savdosi boshlandi. Shu yil global uglerod bozorlariga qo'shilib,

"Yashil O'zbekiston" iqlim investitsiyalari platformasini yaratish maqsad qilingan. Demak, mazkur maqsadlarga erishish uchun xorijiy investitsiyalar suv bilan havodek zarur.

Ikkinchi yo'nalish — raqamli texnologiya va sun'iy intellekt sohasi. Butun dunyoda mazkur yo'nalishlarda raqobat boshlangan. Bugun u iqtisodiyotning drayveriga aylanayotganini mamlakatimizda shu yilning o'zida IT eksporti 1 milliard dollarga yetgani ham tasdiqlaydi. 2030-yilga borib, bu ko'rsatkichni 5 karra oshirish maqsad qilingan. Buning uchun yaqin besh yilda xususiy investorlar bilan birga quvvati 500 megavattidan ziyod 20 ta "data markaz" barpo etiladi.

Shuningdek, boy tariximiz, azaliy qadriyatlarimiz hamda yangi kreativ g'oyalarni mujassam etgan sun'iy intellektning milliy modeli ishlab chiqiladi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi bu tizim samaradorligini ta'minlash uchun "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi allaqachon boshlangan. Xalqaro investorlar ko'magi bilan O'zbekiston nufuzli IT va Fintech xabiga aylanishiga shubha yo'q.

Prezidentimiz taklif etgan hamkorlik va investitsiyalar uchun uchinchi yo'nalish — moliyaviy tizim va texnologiyalar. Ular bank, moliya, sug'urta, kapital bozori. Bu sohalarni keyingi rivojlanish bosqichiga olib chiqish maqsadida O'zbekistonda Moliyaviy barqarorlik kengashi tuziladi, Markaziy bankda kibexavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushiriladi. Milliy qayta sug'urtalash kompaniyasi va Global qayta sug'urtalash raqamli platformasi tashkil etildi.

Startaplar uchun muqobil moliyaviy instrument — venchurlar bizda tez rivojlanib boryapti. "Muqobil investitsiya jamg'armalari to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Hamkorlar bilan birgalikda kelgusi besh yilda venchur va boshqa muqobil sarmoyalar qiymatini 1 milliard dollarga olib chiqish mumkin.

To'rtinchi yo'nalish — nodir metallarni qazib



investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini namoyish etish uchun ham muhim maydon bo'ldi. U xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish imkoniyatlarini o'rganish, yangi loyihalarni muhokama qilish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun qulay platforma yaratdi. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Jalb etilgan investitsiyalar yangi ish o'rinlari ochish, infratuzilmani rivojlantirish, texnologiyalarni transfer qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Tadbir xalqaro moliya institutlari,

aylandi. Budget taqchilligini kamaytirish, ichki bank sektorini rivojlantirish, davlatga qarashli korxonalarning shartli majburiyatlarini kamaytirish, xususiy sektorning faol rolini oshirish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, texnik ta'limni kuchaytirish, oliy ta'lim va sanoat o'rntasidagi tafovutni qisqartirish, bilimga asoslangan iqtisodiyotni yaratishda qat'iy davom etish, iqtisodiy institutlarni mustahkamlash va boshqalar yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lmoqda.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida birinchi marta Milliy investitsiya ko'rgazmasi tashkil etilgani ham katta ahamiyatga ega. Unda yetakchi xususiy kompaniyalar o'z loyihalarini taqdim etdi, O'zbekiston korxonalari esa o'z mahsulotlari va salohiyatini xalqaro investorlarga namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Forum dasturi panel muhokamalari, strategik muzokaralar va ishbilarmonlik uchrashuvlarini o'z ichiga oldi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarish, avtomobilsozlik, mashinasozlik va elektrotexnika sanoati masalalari asosiy mavzular sifatida e'lon qilindi. Suv resurslarini boshqarish, investorlarning huquqiy himoyasi, fintex, elektron tijorat, "yashil" energetika, xususiy lashtirish va investitsiya islohotlari, shuningdek, shaharsozlik va raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Forumda 7500 dan ortiq delegat, jumladan, 100 ga yaqin davlatdan salkam 3000 xorijiy mehmon ishtirok etgani, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari, siyosatchilar, iqtisodchilar, yetakchi korporatsiyalar va investitsiya fondlarining top menejerlari,

bo'ldi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan turli investitsiyaviy loyihalarning shaffofligi va mazkur yo'nalishda byurokratik yo'llardan qochilayotgani esa xorijiy investorlarda mamlakatimizda biznes qilish istagini oshirayotgani bor gap.

Bugun dunyoda o'zaro ishonch yo'qolgan bir paytda sarmoyalarni jalb qilish oson emas. Buning uchun investorlarga ma'qul keladigan islohotlar o'tkazish kerak. O'zbekiston bu yo'lda jiddiy qadamlar tashladi. Birinchi forumdan keyingi o'tgan uch yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish, biznesga keng yo'l ochish, bu borada qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash bo'yicha tizimli islohotlar davom ettirildi.

Davlatimiz rahbari forumdagi nutqida investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash va islohotlar izchilligini ta'minlash yo'lida O'zbekiston dadil qadamlar tashlashini e'lon qildi. Eng avvalo, global ishlab chiqarish zanjirida har bir davlat uchun teng sharoitni ta'minlaydigan ishonchli qoidalar o'rnatilishida Jahon savdo tashkilotining alohida o'rni bor. Shu bois, O'zbekiston 2026-yilda ushbu tashkilotning a'zosiqa aylanish bo'yicha katta maqsad qo'ygan. Buning uchun o'nlab qonun, yuzlab standart xalqaro talablarga moslashtirildi va bu ishlar shu yil to'liq yakuniga yetkaziladi.

Mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay muhit yaratish uchun mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitni kafolatlovchi "milliy rejim" joriy qilinadi. Davlat organlari bilan munosabatga kirishishda "yagona darcha" tamoyili tatbiq etilishi belgilandi. Investitsiya faoliyatini ortiqcha tekshiruvlardan kafolatli himoyalash tizimi yaratiladi. Bular orqali 2030-yilga borib O'zbekistonning kredit



chiqarish sohasi. Bugungi "to'rtinchi sanoat inqilobi" "texnologik mineral"ga talabni bir necha karra ko'paytirmoqda. O'zbekistonda volfram, molibden, magniy, litiy, grafit, vanadiy, titan va boshqa mineralarning katta zaxirasi aniqlangan. Umuman, yer osti boyliklarimizning salohiyati 3 trillion dollarga baholangan. Mintaqamiz mineralardan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish "xabi"ga aylinishi uchun Toshkent va Samarqand viloyatlarida "Kelajak metallari texnopark"i bunyod etilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari geologiya-qidiruv ishlaridan boshlab, tayyor mahsulot zanjirini yo'lga qo'ygan investorlarga o'n yil davomida renta solig'ini qaytarib berish tashabbusini ilgari surdi.

Bundantashqari, O'zbekistonqishloqxo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash uchun qulay iqlimga ega. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda yetakchilardan. To'qimachilik sanoatida qo'shilgan qiymatni oshirish uchun investitsiyalar zarur. Yurtimiz boy tarixiy va madaniy merosiga ega. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yo'llar, temir yo'llar, aeroportlar va boshqa infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilishda ham xorij sarmoyasining ahamiyati nihoyatda katta.

Ushbu forum nafaqat investitsiya jalb qilish, balki O'zbekistonni xalqaro biznes hamjamiyatiga tanitish, mamlakatning

hukumatlar, biznes vakillari va ekspertlar o'rntasidagi muloqotni kuchaytiradi, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi. Mamlakatimizning tashqi maydondagi imijini yaxshilaydi. O'zbekistonni zamonaviy, ochiq va investitsiyalar uchun qulay mamlakat sifatida taqdim etadi. Bu esa xalqaro maydonda mamlakat imijini yaxshilashga xizmat qiladi. Buning isboti o'laroq, so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga 90 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilingan. Ushbu sarmoya o'tgan yili milliy yalpi ichki mahsulotning 6 foiz o'sishiga yordam berdi. Belgilangan rejalar amalga oshsa, 2030-yilga borib, O'zbekiston iqtisodiyoti 200 milliard dollarga yetadi. Bu jarayonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim o'rin tutadi.

Farovon O'zbekistonni barpo etishning asosiy strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi alohida o'rin egallamoqda. Bunda O'zbekiston yetakchisining integratsiyalashgan iqtisodiy siyosati, diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish yo'nalishlari, davlat kafolatlari, erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi, soliq imtiyozlari va sarmoya uchun qulay muhit yaratish borasidagi qat'iy siyosati natijasida mamlakatimiz Markaziy Osiyodagi eng jozibador investitsiya manzillaridan biriga



barqaror rivojlanish, innovatsiyalar va raqamli transformatsiya sohasidagi ekspertlar ishtirok etgani O'zbekistonga hurmat, o'zaro ishonch va yaqin hamkorlikning chinakam ifodasi

reytingini "investition" darajaga olib chiqish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, davlat kompaniyalarini xususiy lashtirishda ularni yurtimiz

farovonligiga xizmat qiluvchi yirik aktivlarga aylantirish ko'zda tutilgan. Shu bois, 18 ta yirik kompaniya va bankdagi qariyb 2 milliard dollarlik davlat ulushini o'zida birlashtirgan "Milliy investitsiya jamg'armasi" tashkil etildi. Jamg'arma boshqaruviga nufuzli "Franklin Templeton" kompaniyasi jalb qilindi. Kelgusi yilning o'zida jamg'armaning aksiyalar paketi xalqaro IPOga chiqariladi. Shuningdek, professional konsultantlar jalb qilinib, ikki yilda 29 ta yirik davlat kompaniyasi xususiy lashtirildi.

Transport va logistika sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining qon tomiri. Shu bois, bu sohaga ham xususiy kapital faol jalb qilinmoqda. Masalan, Samarqand, Namangan, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlari davlat-xususiy sheriklik asosida salohiyatli investorlar boshqaruviga berildi. Urganch aeroporti boshqaruviga dunyoning yetakchi "Inchon" kompaniyasi jalb qilindi. Kelgusi yilda Nukus, Termiz, Farg'ona, Navoiy aeroportlari bo'yicha ham tenderlar o'tkaziladi.

Yana bir muhim yo'nalish — poytaxtimizda yashayotgan va ishlayotgan aholi soni 5 milliondan oshdi. Shu bois, 2 million kishiga mo'ljallangan Yangi Toshkent shahrini barpo etib, poytaxtni megapolisga aylantirish ishlari jadal davom ettirilyapti. Bu yerda yiliga 20 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega aeroport, temir yo'l va avtomobil transportini qamrab olgan "multimodal xab" quriladi. Yirik savdo komplekslari va moliya markazlari qad ko'taradi. Ushbu megaloyihani birgalikda amalga oshirish uchun investorlar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar taklif qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz bilan ochiq va do'stona siyosat davom ettirishni bayon qilib, mintaqada "Investitsiya va savdo uchun yaxlit hudud konsepsiyasi"ni ilgari surdi.

Bu taklif va tashabbuslardan chiqariladigan xulosa bitta. Jahon tajribasiga ko'ra, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya bu — iqtisodiyot drayveri, iqtisodiyotning yuragi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini beradi. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarni ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri.

Rivojlangan mamlakatlarda to'plangan boy tajribalar, amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan qaror va chora-tadbirlarning tub mohiyatini o'rganish, yutuq va kamchiliklarini ilmiy jihatdan tanqidiy tahlil qilish milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyoti uchun har tomonlama dastak vazifasini o'taydi. Binobarin, xalqaro maydonda mavjud boy tajriba, zamonaviy tendensiyalar yildan yilga takomillashib, o'zgarib bormoqda. Xususan, investitsiyalarni jalb etish, ularni eksport va import qilish, investorlarning manfaatlarini himoya qilish, investitsion faollik va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog'liq masalalar shular jumlasiga kiradi.

Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, sifati va qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan yilga investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko'rinishlari yaratib kelinmoqda. Albatta, forum o'tkazishdan kutiladigan natijalar barchamiz uchun muhim. Yangi investitsiya shartnomalarining imzolaniishi, yangi loyihalarning boshlanishi, ish o'rnlari ochilishi, infratuzilmani rivojlantirishga qo'shimcha mablag' jalb qilinishi, investitsiyaviy jozibadorlik oshishi, xalqaro hamkorlik mustahkamlanishi shular jumlasidan.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim voqea. O'zbekistonning rivojlanishi, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Forum mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini namoyish etish, investorlar bilan muloqot o'rnatish va investitsiya muhitini yaxshilash uchun muhim platforma bo'ldi.

XOTIN-QIZLAR FAOLLIGI ORTIB BORISHIGA NIMALAR TURTKI BERADI?

O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi hamkorlik bugun tarixiy rishtalarga asoslangan, ammo zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan strategik sheriklikka aylanmoqda. Oliy darajadagi sa'y-harakatlar mamlakatlarimiz o'rtasida til, ta'lim, madaniyat va diplomatikaviy sohalarida yangi yutuqlar sari yo'l ochmoqda. Tarixiy kitoblar, zamonaviy ta'lim dasturlari va madaniy ko'rgazmalar xalqaro maydonda O'zbekiston ovozingin yanada barallash yongrashiqa xizmat qilayotir. Bu hamkorlik nafaqat o'tgan asrlar madaniy muloqotining davomi, balki kelajak uchun ishonchli poydevor hamdir.



QAHRAMONIM BOLAM

(Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tog'larida xalqaro terrorchi jangari to'dalarga qarshi harakatlarda qahramonlarcha halok bo'lgan, "Jasorat" medali sohibi – Qahramon Madalimovning onasi Achaniso aya faryodi)

Qiron kelsin zolimlarga, jonim bolam,
Qulab ketdi boshimga osmonim, bolam,
Dod solishga yo'q menda darmonim, bolam,
To o'lguncha qalbmida armonim, bolam.

Sariosiyo tog'larida oqdi qoning,
Sen o'lguncha o'lsin edi onajoning,
Yuragingda qoldi qanchalar armoning,
Vatan uchun ko'kragi qalqonim, bolam.

U qonxo'rlar to'ng'iz kabi o'lar bir kun,
Alloh bergan jazosini olar bir kun,
Do'zaxlarning olovida yonar bir kun,
Ikki kunlik dunyoda mehmonim, bolam.

Sen elim deb o'z joningni berib ketding,
Iyoningni, vijdongingni berib ketding,
Yulduz to'la osmongingni berib ketding,
Tomirinda to'lib-toshgan qonim, bolam.

Zuhra kelin hijroningda qon yig'laydi,
Ko'zlaridan oqqan yoshlari muzlaydi,
Onang seni sara tonglardan izlaydi,
Buncha erta keldi zimistonim, bolam.



Alloh jazo bersin qaddim bukkanlarga,
Ko'rolmasdan yurtimga ko'z tikkanlarga,
La'nat deyman qonxo'rlarni tuqqanlarga,
Qabring nurga to'lsin — Qahramonim, bolam.

MEN TINCHLIKNING QUCHOG'IDA YASHAYAPMAN!

(Qahramon Madalimovning qizi Yodgoraning mungli nolasi)

Bolalikning orzulari ko'kka uchdi,
Xayolimni ayriqligining yodi quchdi.
Bu olamda Qahramonim otam mening,
Yurt ishida yonib turgan cho'qqa tushdi.

Tinchlik uchun el dardiga fido bo'ldi,
Jondan suygan Zuhrasidan judo bo'ldi.
Tariximiz so'zlayotgan Nishon bobom,
Qahramonning hijronida ado bo'ldi.

U oldin ham ayriqliqdan kuygan edi,
Shuhratjonni yovga berib qo'yg'an edi.
Afg'onlarning nolasiga quloq solib,
Urush dog'in yuragida tuygan edi...

Quvasoyda quvnayapti qushlar bu kun,
Bolajonlar ko'rar oppoq tushlar bu kun.
Ota, sizning yo'lingizda ungan gullar,
Tinchligimiz oftobini xushlar bu kun.

Zaynuraxon opamizning baxti hayot,
Nayra to'lib yashnayotgan taxti hayot.
Marg'ilonning quvnayotgan Kumushlari,
Yuragida yozib qo'ygan ahdi hayot.

Oltinoyning qo'ygan a'lo baholari,
Jasoratga urg'u bergan sadolari.
Yurt oldida yuzingizni yorug' qilgay,
Onamizning tongda qilgan duolari.

Bizga hamroh Yurtboshimiz tilaklari,
Achaniso ayam aytgan ertaklari.
Dong'i doston, Qahramonim otamizning,
Tuprog'ida gullayapti yuraklari.

Ular endi g'alabaning bog'idadir,
Qizg'aldoqlar muhabbatning dog'idadir.
Tinchlik uchun olislarda quchoq ochgan,
Orzulari Sariosiyo tog'idadir.

O, u tog'lar, yurtimizning qo'rg'onlari,
Otam esa Sohirqiron o'g'onlari.
Yov yo'lida tuprog'ini xor qilmagay,
O'zbeqimning na'ra tortgan arslonlari...

Yo'limizga peshvoz chiqar nurli onlar,
Peshonamni silab o'tgan hur zamonlar,
Yodgoraning baxti uchun fido bo'lgan,
Tuprog'ini suygan aziz Qahramonlar.

Sizni davru davronlarim unutmagay,
Tizniklasevar insonlarim unutmagay.
Bayrog'ini hilpiratgan O'zbekiston,
Qalbidaryo posbonlarim unutmagay!

Yodgoraman, shamol kabi shoshyapman,
Dovonlardan g'ururlanib oshyapman.
Tongda baxtli kunlarimni kuylar hayot,
Men tinchlikning quchoq'ida yashayapman!

Men — tinchlikning quchoq'ida yashayapman...

Axtamquli

Yoz yomg'iri Quvasoy qir-adirlariga o'zgacha tarovat, fayz beradi. Quyosh taftidan sillasi qurib borayotgan dov-daraxtlar jonlanib, sarg'aygan qirlar qaytadan yashillikka burkandi. Pishiqchilik mavsumi bo'lgani uchun bog'u rog'lar odamlar va turnaqator mashinalar bilan yanada gavjum.

VATAN MARD O'G'LONLARINI UNUTMAYDI

Qir-adirlar bo'yab cho'zilgan tuya o'rkachiday yo'llardan o'tib borar ekanman, xayolimni turfa fikrlar chulg'aydi. Jasorati abadiyatga muhrlangan qahramonlar bilan g'oyibona suhbatlashishga urinaman. Ko'z o'ngimda norg'ul va pahlavon o'zbek o'g'lolari siymosi gavdalanadi. Ular yashashga haqli edi. Ammo vatan tinchligi, daxlsizligi yo'lida o'limga tik bordi...

Ulardan biri 28 yoshida hayot shami so'ngan, ikki farzandning otasi, jasur o'g'lon Qahramon Madalimov bo'ladi. Uning uyiga borib, oila a'zolarining dil jarohatini yangilash, o'sha mash'um kundagi xotirasini qayta tiklash men uchun og'ir ko'rinar. Ammo mardlik, matonatni unutib, yashirib bo'lmas ekan...

Quvasoy shahridagi Sufon qishlog'ida tug'ilib o'sgan harbiy yigit 2000-yil avgustda Surxondaryo viloyatining tog'li hududida terrorchilarga qarshi jangga kirishdi va qahramonlarcha halok bo'ldi. O'shanda u ayni navqiron yoshda edi.

Qahramon tug'ilib o'sgan qutlug' maskanga

muhabbat rishtalarini jo'sh urdirdi. Bir yildan keyin oilada farzand dunyoga keldi. Unga Zaynura deb ism qo'yishdi. Qahramon o'z oilasini jondan ortiq sevardi, turmush o'rtog'i va farzandlarini ardoqlab, mehr berib, mehr topgandi.

Qahramon 1991-yil yigitlik burchini o'tashga yo'l oldi. U harbiy xizmat davomida jismonan va ma'nan chinigdi. Namunal xulqi bilan safdoshlariga o'mak bo'ldi. Muddatli harbiy xizmat davomida unda harbiy bo'lish istagi tug'ildi. Bu o'y qat'iy qarorga aylandi va 1993-yildan boshlab shartnoma asosida xizmatni davom ettirdi. Shu tariqa Qahramon ishining yetuk mutaxassisi bo'lgan tajribali harbiy xizmatchi sifatida qurol-doshlari orasida hurmat-e'tibor topdi.

KUNLARNING BIRIDA...

Atrofni tun pardasi qoplad, hamma shirin uyquda. Qahramonning uyqusi qochdi. Yaqinlarini uyg'otib yubormaslik maqsadida dahlizga chiqib,



avval ham kelgan edim. Shunga ham chorak asr bo'libdi. O'shanda Nishonboy aka, Achaniso xola, qahramonimizning turmush o'rtog'i Zuhraxon bilan suhbat qilgan, ko'ngil so'ragan edim...

— Uy manzilini bilasizmi, uzoq ketib qolmayapmizmi? — deya xayolimni bo'ldi haydovchi hamroh.

— Yo'q, shundoq katta yo'l bo'yida, — deyman Sufon qishlog'ida mevali daraxtlar oralab qurilgan fayzli xonadonlarga boqib.

E'tiborimni yo'l bo'yida o'rnatilgan yodgorlik lavha tord. Unda sufonlik qahramon haqida ma'lumot berilgan. Shu tariqa manzilga yetib keldik. Bizni uy bekasi Zuhraxon samimiy qarshi olib, ichkariga boshladi.

Yillar silsilasida hayot sinovlariga qarshi mardona kurashgan ayolning sabr-toqati, matonatiga tahsin aytaman. O'shanda u ham ko'ngli orzularga to'lgan va endigina 24 yashar kelinchak edi. Yillar o'z ta'sirini ko'rsatishi bor gap. Qurilishi chala qolgan uylar bitibdi, Qahramon o'tqazgan uzum, mevali daraxtlar hosilga kirgan. Zuhraxon ana shu hayot sinovlarida toblanib, mard, o'ktam ana sifatida elda hurmat, izzat topdi...

Zuhraxon 1995-yilda Qahramon bilan turmush quradi. Ular nafaqat bir oila, balki hamkasb, hamfikr insonlar edi. Qahramon Marg'ilon, Zuhraxon Farg'ona tibbiyot bilim yurtini tamomlagandi. Bu uzviylik oilani har jihatdan mustahkamladi, mehr-

kursiga o'tirdi. Turmush o'rtog'ining bezovtaligini ilg'agan ayol uning yoniga keldi.

— Tinchlikmi, biror joyingiz og'riyaptimi? — xavotir bilan yuzlandi u.

— Yo'q, shunchaki o'zim, — dedi Qahramon o'ychan ohangda va gapida davom etdi: — Sizlarni juda yaxshi ko'raman. Men bilan mana shunday zahmatli va sharafli yo'lni bosib o'tish uchun barcha qiyinchiliklarga tayyor bo'lgan sizdek dillashim, farzand va yaqinlarim borligidan faxrlanaman...

Yotog'iga qaytgan Qahramon jajji qizalog'i boshini otalarcha mehr bilan siladi. Shirin uyquga cho'mgan tiniq yuzlariga uzoq tikildi. Bu nigohda qizini xuddi birinchi va oxirgi marta ko'rayotganday hayrat, sog'inch va yana kishi bilmas tuyg'ular qorishiq edi.

...Tog' daralarida kechgan shiddatli jangda hamma bir maqsad yo'lida birlashdi. Vatan sarhadiga bostirib kirgan terrorchilarni yo'q qilish maqsadi sari olg'a intildi. Tushdan so'ng harbiylarimiz Kishut daralarini o'z nazoratiga oldi. Ammo qoyalari ortiga yashiringan bosqinchilar osonlikcha taslim bo'lishni istamasdi. Qahramon otishmalar chog'ida yaralangan qurol-doshlarga tibbiy yordam ko'rsatish bilan birga o'zi ham jangda ishtirok etdi. U dushmanga zarba berish chog'ida og'ir yaralandi. Yarador holida oldinga intildi, ko'zlari tinib, madorsizlandi. Biroq dushmanlarning siljishiga yo'l bermadi. Vatan sarhadi uchun qalqon bo'ldi. Harbiy

xizmatchilar sabab tinchlik, shukuhli kunlar qaytdi. Ammo vatanning mard o'g'loni Qahramon uyiga omon qaytmadi. Uning yodi yurt-doshlari qalbidamanguga muhrlandi.

Serjant Qahramon Madalimov vafotidan so'ng "Jasorat" medali bilan taqdirlandi.

YAXSHILAR MEHRIDAN KUCH OLIB

Kutilmagan xabar mushfiq ayolni esankiratib qo'ydi. Endi atak-chechak qilayotgan qizaloq, hali dunyoga kelmagan norasidaning hayot yo'li onani o'yantirgan edi. "Endi nima bo'ladi? Nahotki, hamma narsa tugagan bo'lsa?!"

Ammo yaqinlari, davlatimiz Zuhraxon va uning oila a'zolarini yolg'izlatib qo'ymadi, mehr berdi, qo'llab-quvvatladi.

— Turmush o'rtog'imning mard va jasurligi, vatanga, harbiy burchiga sadoqati barcha uchun namuna, — deydi Zuhraxon mahzun ohangda. — U haqiqatan boshqacha, ota-onasi, oilasi, akakulariga mehribon, shirinso'z, saxiy inson edi. Afsuski, hayotdan erta ketdi. Yurtimiz, xalqimiz tinchligi uchun jon fido qildi. Biz uni jisman yo'qotgan bo'lsak-da, ma'nan hamon birgimiz. Turmush o'rtog'im mangu qo'nim topgan joy uyimizga juda yaqin. Men uning mehr-muhabbati, yonimda yelkadosh bo'lib turganini hamisha his qilib yashayman. To'ng'ich qizim Zaynura Farg'ona davlat universitetida ta'lim olib, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib xizmat qilaypti. Yodgora Andijon davlat tibbiyot universitetini muvaffaqiyatli tamomlamoqda. Hammasi uyli-joyli, bir etak nabiralari qurshovidaman.

Qahramon tug'ilib o'sgan ko'chaga uning nomi berilgan. Tahsil olgan maktabida byust o'rnatilib, xotira burchagi tashkil etilgan. Keng jamoatchilik vakillari bu yerga tez-tez kelib turadi. Qahramonning bolalik va o'quvchilik yillarini xotirlaydi, o'quvchi yoshlarga namuna qilib ko'rsatadi.

Kenja qizi Yodgora otasini ko'rmasdi. U faqat otasining suratlariga termilib, mehriini sog'inib ulg'aydi. Lekin o'ksimadi, mana shunday mard, jasur otasi, vatan himoyasi uchun jonidan kechgan insonning farzandi ekani bilan faxrlanib yashadi, unga munosib bo'lishga harakat qildi.

— Mustaqilligimizni abadiy saqlash oson ish emasligini yaxshi bilaman. Chunki otam tinchlik yo'lida jonini qurbon qilganlardan, — deydi Yodgora uy to'rida turgan suratlariga termilib. — Bu oilamiz uchun juda katta yo'qotish edi, albatta. O'sha paytda opam 5 yosh, men onam yuvujidida 3 oylik bo'lganman. Aytishlaricha, bu fojidan so'ng onam butunlay o'zini yo'qotib qo'ygan. Lekin otamga muhabbati, sadoqati va vafosi tufayli o'zida qayta kuch topa olgan. Hayotini bizga bag'ishlab yashab kelyapti. Shunday yurtning mard, jasur o'g'lonining qizi ekanimizdan faxrlanamiz. Yaxshi insonlar mehri, e'tiborini his qilib yashaymiz. Davlatimiz rahbari bizga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatib, boshimizni silayapti. Otam tibbiyot institutida tahsil olib, yaxshi shifokor bo'lishni orzu qilgan ekan. Ammo ish, xizmat bilan bo'lib, orzulari ushalmay qolgan. Shukrki, otamning armonlari ro'yobga chiqdi. Imtiyoz asosida Andijon davlat tibbiyot universitetiga o'qishga kirib, davolash fakultetini tamomlayapman. 9-may — Xotira va qadrlash kuni Toshkent shahridagi G'alaba bog'i hududida yana bir majmua — "Millat fidoyilari" xiyoboni qad rostladi. U yerdan otajonim siymosini ko'rib, vatan o'z qahramonlarini aslo unutmashligini chin dildan his qildim.

El-yurt boshiga ish tushganda etik kiyib, suv kechganlar ruhini shod etish chin insonlik belgisi. Qahramon Madalimov mangu uyquga ketganiga 25-yil bo'lyapti. Ammo bu xonadonga kelib-ketuvchi, ularni yo'qlaydiganlar ko'p. Chunki Qahramon qisqa umri davomida o'zidan munosib nom qoldirdi. Yangi O'zbekistondagi inson qadriini ulug'lab, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar sabab esa millat qahramonlari nomi yuksak sharaf topdi. Quvonarlisi, ana shunday qahramonlarimizning boshlagan ishini bugun farzandlari munosib tarzda davom ettirmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetaları tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
36191 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 22:00 Topshirildi — 23:55